

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QORABOYEV HUSNIDDIN KAMOLOVICH

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA UY VAZIFALARINI
TASHKIL ETISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (pedagogika fanlari)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Qoraboyev Husniddin Kamolovich

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarida uy vazifalarini tashkil etishning
ilmiy-metodik asoslari5

Корабоев Хусниддин Камолович

Научно-методические основы организации домашних заданий на уроках
чтения в начальных классах25

Koraboev Husniddin Kamolovich

Scientific and methodological basis for organizing homework during reading
lessons in primary school 50

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works56

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

QORABOYEV HUSNIDDIN KAMOLOVICH

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QISH DARSLARIDA UY VAZIFALARINI
TASHKIL ETISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang‘ich ta’lim)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2256 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.tsuull.uz) va “ZiyoNet” Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Niyozmetova Roza Xasanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Safarova Rohatoy G‘aybullayevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Hazratqulov Mutallib Rashidovich
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Samarqand davlat pedagogika instituti

Yetakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, (www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil “___” _____ dagi _____ -raqamli reestr bayonnomasi).

Ashirboyev Samixon

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

Q.U.Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash kotibi,
filol.f.d., dotsent

S. X Muhamedova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda 2030-yilgacha yangi qabul qilingan konsepsiyada ta'lim taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, barqaror rivojlanish maqsadlariga yetkazuvchi muhim faoliyat sifatida e'tirof etilib, sifatli ta'lim berish, ta'lim olishni yaxshilash va o'zlashtirish natijalarini baholash usullarini takomillashtirish, o'quvchining intellektual darajasini rivojlantirishning samarali usullaridan keng foydalanish masalalari ko'zda tutilgan. Xususan, AQSh, Xitoy, Yangi Zelandiya, Italiyada uy vazifasining o'quvchilarning ta'lim haqidagi tasavvurlariga ta'siri, uy vazifalarining o'quvchilar natijalariga ta'siri, turli xil uy vazifalari amaliyotining o'quvchilar motivatsiyasi va faolligiga ta'siri, muayyan mutanosiblikdagi uy vazifalari va ularni so'rash hamda o'quvchilarni baholash bilan bog'liq dars bosqichlarini to'g'ri tashkil etish muammolari keng tadqiq etilmoqda.

Dunyodagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot markazlarida shaxsning ma'naviy va jismoniy rivojlanishiga qaratilgan jarayonlar, ijtimoiy-madaniy faoliyat kategoriyalari integratsiyalashuvi borasida izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, boshlang'ich ta'limdan o'quvchilarning matn ustida ishlash, kreativ topshiriqlar asosida ijodkorligini rivojlantirish, bu borada izlanishga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlarini qo'yish, mustaqil tafakkurni shakllantirishda uyda bajariladigan vazifalarning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirish masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda boshlang'ich ta'limni tashkil etishga doir ilmiy asoslangan g'oyalar, yangicha yondashuvlar o'zining ijobiy samarasini bermoqda. Ayni paytda boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etishning metodik jihatlarini aniqlashtirish zarurati mavjud. Boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga oid vazifalarning belgilanishi ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dastur PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot)da mamlakatimizning doimiy ishtirokini ta'minlash va samarali natijaga erishish, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida muayyan mutanosiblikdagi uy vazifalari, ularni so'rash va o'quvchilarni baholash bilan bog'liq dars bosqichlarini samarali tashkil etishning innovatsion yondashuvga asoslangan metodikasini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 3-sentabrdagi PQ-3304-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi faoliyati to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son "Umumiy o'rta va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim

standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Boshlang'ich sinflar o'qish darslari samaradorligini oshirish uning mazmunini takomillashtirishda muhim o'rin tutadigan tadbirlar – uy vazifasini muayyan mutanosiblikda belgilash, o'quvchilarga tushuntirish, so'rash va baholash bilan bog'liq dars bosqichlarini to'g'ri tashkil etish muammolari K.Qosimova, S.Matchonov, N.Bekniyozova, Q.Yo'ldoshev, R.Safarova, Q.Husanboyeva, R.Niyozmetova, S.Kambarova, Sh.Sariyev, X.Bakiyeva kabi metodist olimlar tomonidan turli nuqtayi nazardan tadqiq qilingan¹.

MDH davlatlarida boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida matn ustida ishlash muammolari, uy vazifalarini berishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olish masalalari A.L.Filimonova, S.A.Leonov, M.R.Lvov, N.R.Neusipova² kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Xorijda Roberto Nevilis, Xarris Kuper, Sara Bennet, Nensi Kalish va Alfi Kohlarning ilmiy izlanishlarida uy vazifalarini tashkil etishda o'quvchilarning qiziqishlari, yosh va gender xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq jihatlar

¹Qosimova K., Ubayduleeva N. Ikkinchi sinfda ona tili darslari: Ўqituvchilar uchun metodik q'llanma. – Toshkent: Ўqituvchi, 1987. – 168 b.; Matjonov S. Umutg'aliim tizimida adabiyatdan mustaqil ishlarini tashkil etish: ped. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 1998. – 243 b.; Bekniyozova N. Boshlang'ich sinflar ona tili darslarida o'quvchilarga matn yaratishni o'rgatish metodikasi (ta'lim o'zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2012. – 160 b.; Ёўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. д-ри. ... diss. – Toshkent, 1997. – 306 б.; Сафарова Р., Юсупова Ф., Неъматов Ш., Кучкарова Ф. Она тили ва ўқиш дарсликларида концентризм тамойили асосида тақдим этиладиган ўқув материалларини синфлар кесимида лойиҳалаштириш. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. – 128 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. д-ри. ... diss. – Toshkent, 2006. – 262 б.; Ниёзметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Toshkent: Fan, 2006. – 216 б.; Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 354 b.; Kambarova S. Mutolaa madaniyati va o'quvchilarning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 158 b.; Сариев Ш.У. Бошланғич синф ўқиш дарслирида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш методикасини такомиллаштириш (1–2-синф материаллари мисолида): пед. фан. б. фалс. док. ... (PhD) diss. – Toshkent, 2020. – 144 б.; Бакиева Х.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси: пед. фан. б. фалс. док. ... (PhD) diss. – Самарқанд, 2019. – 143 б.

² Филимонова А.Л. Трудности в организации и проведении уроков литературного чтения // Журнал "Начальная школа", 2009. № 6. – С. 59–64; Леонов С. А. Развитие речи учащихся на уроках литературы: Метод, пособие для СПТУ. – М.: Высш. школа, 1988. – 66 с.; Львов М.Р., Горещкий В.Г., Сосновская О.В. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр Академия, 2007. – 464 с.; Неусыпова Н. М. Развитие речи младших школьников в условиях сельской малокомплектной школы: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1990. – 95 с.

yoritilgan.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim, ko'nikma, malakalari va hayotiy kompetensiyalarini shakllantirishda uy vazifalarini tashkil etish masalalari monografik yo'sinda tadqiq etilmagan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "O'zbek adabiyotini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil qilishning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash;

boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil qilishga oid tamoyillarni belgilash;

uy vazifalarini tashkil etishning didaktik va metodik yondashuvlarini asoslash;

o'qish darslarining uy vazifalarini so'rash bosqichini uy vazifalarining turi va mazmunidan kelib chiqib tashkil etish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyektini sifatida boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etish jarayoni belgilangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Samarqand viloyati Toyloq tumanidagi 5-maktab, Samarqand shahar 68-maktab, Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi 6-maktab va Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumanidagi 33-, 46-maktablaridan jami 956 nafar o'quvchi (shundan 480 nafari tajriba sinfida, 476 nafari nazorat sinfida) jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, test, suhbat, savol-javob, kuzatish, anketa so'rovnomalari, tajriba-sinov tahlili va natijalarini matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil qilishning pedagogik imkoniyatlari o'qish kitoblari, ona tili va o'qish savodxonligi fani bo'yicha dastur va darsliklarning uy vazifasi bilan bog'liq ta'lim mazmunini tahlil qilish natijasida o'quvchida matn ustida ishlashdan ko'zlanadigan sifat ko'rsatkichlariga erishish, ongli kitobxon darajasiga yetkazish, mustaqil o'quv-biluv (kognitiv) faoliyatini shakllantirish, matnda aks etgan axborotning o'zlashtirilishiga ichki ehtiyoj uyg'otish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish, o'quvchida elementar matniy va adabiy tushunchalarni

shakllantirish, ijodiy faoliyatga undash nuqtayi nazaridan aniqlashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil qilishga oid tamoyillar darsda matnни o'qish; matn mazmunini tushunish amallari doirasida bajariladigan ish turlari: matn mazmunidan chetga chiqqan holda bajariladigan ish turlari bilan mutanosibligi; o'quvchi uyda bajaradigan ishlari uchun sarf qilishi zarur bo'lgan vaqtni optimal darajada ajratish; uyga vazifa berish va uy vazifasini so'rashda o'quvchining bilim saviyasi va imkoniyatlarini hisobga olish mazmunida o'qish texnikasini egallash va axborot olish borasidagi ta'limning strategik va taktik maqsadlari asosida dalillangan;

boshlang'ich sinfda uy vazifalarini tashkil etishga doir didaktik va metodik yondashuvlar uy vazifalari faqat bilimlarni mustahkamlovchi vosita sifatida emas, balki o'quvchining yosh xususiyatlariga mos mustaqil o'rganish kompetensiyasini shakllantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida asoslanib, uy vazifalarini hajm, mazmun va bajarish usuli bo'yicha optimallashtirish, uy vazifasini belgilash, vazifani tushuntirish, o'quvchilarning uy vazifasini bajarish faoliyati hamda o'quvchilardan uy vazifasini so'rash ketma-ketligida, berilgan vazifa va uni so'rashdagi mazmuniy mutanosiblik asosida takomillashtirilgan;

o'qish darslarining uy vazifalarini so'rash bosqichini uy vazifalarining turi va mazmunidan kelib chiqib tashkil etish metodikasi o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish madaniyatini shakllantirish, matn mazmunini chuqur anglash, matnning til va uslubiy xususiyatlarini aniqlash, badiiy obrazlarni tahlil qilish, shaxsiy mulohazalar asosida matn tuzish hamda mustaqil o'qish strategiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan kreativ-differensial o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang'ich sinflar o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etish bilan bog'liq "Ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish", "O'qish darslarida interfaol metodlardan foydalanish", "O'qish darslarida uyga vazifalarni tashkil etishning ilmiy-nazariy jihatlari", "O'qish savodxonligi darslarida ijodiy topshiriqlardan foydalanish" nomli metodik qo'llanmalar, "Boshlang'ich ta'limda matn ustida ishlash metodikasi" nomli darslik yaratilgan;

o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqot natijalaridan oliy ta'limda "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi", "Adabiyot o'qitish metodikasi" fanlari o'quv dasturlari mazmunini takomillashtirishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi muammoga falsafiy, pedagogik, psixologik va metodik yondashish, boshlang'ich sinflarda uy vazifalarini tashkil etish metodikasi bo'yicha respublikamiz va chet ellik olimlar qarashlari, amaliyotchi o'qituvchilarning tajribalariga tayanilgani, tadqiqot vazifalariga mos yondashuvlar tanlangani, o'tkazilgan tajriba-sinov ishlari nazariy va amaliy

tasdig'ini topgani, tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik-statistik metodlar vositasida asoslangani, olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, xulosa va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'qish darslarida uy vazifalarini matn ustida olib borilayotgan ishlarga mos tarzda belgilash va tashkil etishning ilmiy-metodik jihatlari tahlil etilgani, uy vazifalariga qo'yiladigan didaktik va metodik talablarning o'rganilgani, uy vazifalarini bajarishga oid zamonaviy yondashuvlarning shakllantirilgani, uy vazifalarini ma'lum reja asosida tashkil etishning pedagogik jihatlari ishlab chiqilgani, uy ishlarini tashkil etishda oila va maktab hamkorligining takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati tayyorlangan uslubiy tavsiya va qo'llanmalar o'qish darslarida topshiriqlarni puxta bajarishda andoza vazifasini bajarishi, ishlab chiqilgan tavsiya va ko'rsatmalarni amalga oshirish natijasida o'quvchilarning bilimlarni puxta va ongli o'zlashtirishi, o'z ustida muntazam ishlash ko'nikmalarini shakllantirishi, o'quvchilar kompetentligi va kreativligini oshirishga doir yondashuvlar tanlangani, tadqiqot natijalaridan oliy o'quv yurtlarining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida mutaxassislik fanlarini o'qitishda, pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida metodik tavsiyalar sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil etish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil qilishning pedagogik imkoniyatlari o'quvchida matn ustida ishlashdan ko'zlanadigan sifat ko'rsatkichlariga erishish, ongli kitobxon darajasiga yetkazish, mustaqil o'quv-biluv (kognitiv) faoliyatini shakllantirish, matnda aks etgan axborotning o'zlashtirilishiga ichki ehtiyoj uyg'otish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko'nikmasini oshirish, o'quvchida elementar matniy va adabiy tushunchalarni shakllantirish, ijodiy faoliyatga undash bilan bog'liq muammolar yuzasidan chiqarilgan xulosa va takliflardan maktab amaliyotida o'qish, ona tili va o'qish savodxonligi, o'qish savodxonligi darslaridan uyga vazifalarni tashkil etish jarayonida foydalanilgan. (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2025-yil 13-noyabrdagi 01/11-6-778-son ma'lumotnomasi). Natijada uy vazifalarini tashkil etish bo'yicha boshlang'ich sinf o'qish dasturlari va darsliklari mazmuni takomillashtirilgan;

boshlang'ich sinf o'qish darslarida uy vazifalarini tashkil qilishga oid tamoyillar darsda matn o'qish, matn mazmunini tushunish amallari doirasida bajariladigan ish turlari: matn mazmunidan chetga chiqqan holda bajariladigan ish turlari bilan mutanosibligi, o'quvchi uyda bajaradigan ishlari uchun sarf qilishi zarur bo'lgan vaqtni optimal darajada ajratish, uyga vazifa berish va uy vazifasini so'rashda o'quvchining bilim saviyasi va imkoniyatlarini hisobga

olish mazmunida o'qish texnikasini egallash va axborot olish borasidagi ta'limning strategik va taktik maqsadlarga oid ilmiy-nazariy xulosalardan A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutida 2022-yilda bajarilgan "Uzluksiz kasbiy rivojlantirish-2022" amaliy loyihasida foydalanilgan (A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy institutining 2025-yil 8-fevraldagi 01/09-207-son ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich sinflar o'qish ta'limi jarayoni ilmiy-metodik va didaktik jihatdan takomillashtirilgan;

uy vazifalarini tashkil etishning didaktik va metodik jihatlari uy vazifasini belgilash, vazifani tushuntirish, o'quvchilarning uy vazifasini bajarish faoliyati hamda o'quvchilardan uy vazifasini so'rash ketma-ketligida, berilgan vazifa va uni so'rashdagi mazmuniy mutanosiblikka oid metodik tavsiyalardan maktab amaliyotida o'qish, ona tili va o'qish savodxonligi, o'qish savodxonligi darslarida foydalanilgan. (Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazining 2025-yil 13-noyabrdagi 01/11-6-778-son ma'lumotnomasi). Natijada boshlang'ich ta'lim o'qish darslarining metodik ta'minoti boyitilgan;

o'qish darslarining uy vazifalarini so'rash bosqichini uy vazifalarining turi va mazmunidan kelib chiqib tashkil etish mazmuni o'qish tezligini oshirish, ifodali o'qish, matn mazmunini chuqurroq tushunish, matnning til xususiyatlarini aniqlash, obrazlarni tahlil qilish, o'z mulohazalari asosida matn tuzish, mustaqil o'qish kabi o'quv topshiriqlari asosida takomillashtirishga oid ilmiy-metodik qarashlardan "Matn ustida ishlash metodikasi" nomli darslik yaratishda foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining №230429-sonli o'quv adabiyotining nashr ruxsatnomasi). Natijada zamonaviy o'qish darsliklarida uy vazifalarini tashkil etish va loyihalashga doir mexanizm takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 11 ta respublika va 15 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 40 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 14 ta maqola, shundan 10 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matnning hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqot mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi va muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti aniqlangan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslangan, tadqiqot natijalarining joriy etilgani, aprotatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Boshlang‘ich ta‘lim o‘qish darslarida uy vazifalarini tashkil etishning ilmiy-amaliy asoslari”** deb nomlangan. Unda o‘qish bo‘yicha uy vazifalarini samarali tashkil etishning ahamiyati, uy vazifalari orqali erishiladigan strategik va taktik maqsadlar, uy vazifalari oldiga qo‘yiladigan didaktik talablar, “O‘qish kitobi” va “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida uy vazifalarining aks etishi, o‘qituvchilar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari tahlili, o‘qish darslarida uy vazifalari mazmunini matn ustidagi ishlarga uyg‘unlikda muayyan yechimlar belgilash muammolari haqida so‘z yuritilgan.

Uy vazifalarini bajarish orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, boshqalarning nazorati va ko‘magisiz shug‘ullanish, tadqiq etish hamda qaror qabul qilish, o‘z-o‘zini baholash kabi sifatlarni qo‘lga kiritishi yuz beradi. Ular o‘quv materialini ustida muayyan tartibda qat‘iyat bilan ish olib borish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar, mustaqil ishlash, o‘quv-biluv faoliyatini yo‘lga qo‘yish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklarni yengib o‘tish yo‘llarini izlay boshlaydilar. Bobda o‘qish o‘quv fani bo‘yicha o‘quvchida matn ustida ishlash nazarda tutilgan sifat ko‘rsatkichlariga erishish; uni ongli kitobxon darajasiga yetkazish; mustaqil o‘quv-biluv (kognitiv) faoliyatini shakllantirish, matnda aks etgan axborotning o‘zlashtirilishiga ichki ehtiyojni uyg‘otish, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish, o‘quvchida elementar matniy va adabiy tushunchalarni shakllantirish, uni ijodiy faoliyatga undash kabi strategik maqsadlarga erishish nazarda tutilgan.

Strategik maqsadlardan birini asos qilib olmagan holda darsning matn ustida olib boriladigan ishlar bosqichini tashkil etishni, strategik maqsaddan ko‘zlanadigan taktik maqsadlarni belgilamaslikni, darslarning o‘qish bilan bog‘liq bosqichini matnga doir so‘zlarni tushuntirishni, matnni o‘qishni, matn mazmunini hikoyalatishni, savol-topshiriqlar ustida ishlashni bir qolipga solib qo‘ymaslik kerakligi bugungi kun talabidir. O‘qish darslari bosqichlarida matnning qaysi jihati ustida ishlash, ularning bo‘sh o‘zlashtirilgan tomoni nazarda tutilishi, matn ustida olib boriladigan ish turlariga mos tarzda uyga beriladigan vazifani belgilash, o‘quvchilarga uy vazifasini qay tarzda bajarish

kerakligini yetarlicha tushuntirish, uy vazifasini so‘rashda ham uyga berilgan vazifa bilan mutanosiblikni ta‘minlash lozim.

Boshlang‘ich sinflarda o‘qish fani bo‘yicha beriladigan uy vazifalari qanday mazmunda bo‘lishi lozimligi o‘quv fani metodikasi oldida turgan jiddiy muammolardan biridir. Yaqin o‘tmishda amalda bo‘lgan “O‘qish kitobi” darsliklarida, ularga yozilgan metodik qo‘llanmalarda taqdim etilgan uyga vazifa berish va uy vazifasini so‘rash tajribasini o‘rganish asosida bir qator ma‘lumotlarga ega bo‘lish va xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

Tadqiqotda dastlab 2017–2019-yillarda amalda bo‘lgan “O‘qish kitobi” darsliklari va ularga yozilgan metodik qo‘llanmalarning uy vazifalari (uyga vazifa berish) va uy vazifasini so‘rash bilan bog‘liq o‘rinlari tahlil qilingan. Uyga bajarish uchun topshirilayotgan vazifa ustidagi ishlar sinfdagi vazifalarga bog‘lanmagan; uyga berilayotgan vazifalar mazmuni bilan darsda o‘rganilayotgan matn ustidagi ishlarda mutanosiblik yo‘q, degan xulosalar chiqarilgan.

2020-yildan boshlab ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi asosida tayyorlana boshlagan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarining tadqiqot mavzusiga aloqador qismlari (uyga vazifa berish va uy vazifasini so‘rash bilan bog‘liq ruknlari) tahlilga tortilgan. Ma‘lum bo‘lishicha, 1–3-sinflar “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida o‘tilgan matnlar yuzasidan o‘qishga o‘rgatish bilan bog‘liq maqsad va vazifalardan kelib chiqadigan bilim-ko‘nikmalarni mustahkamlash uchun mo‘ljallab uy vazifalari havola qilinmagan. Tabiiyki, o‘quvchilarning ma‘lum bir qismi darsda o‘qilgan matnning dasturiy bilim sifatida o‘rganiladigan jihatlarini sinfning o‘zida o‘zlashtirib ulgura olmaydi. Masalan, matni ravon o‘qish uchun har bir o‘quvchi ko‘p marotaba o‘qishi kerak bo‘ladi. Darsda esa barcha o‘quvchini hech bo‘lmaganda bir martadan o‘qishiga erishib bo‘lmaydi. Buning ustiga aksariyat holatlarda matn ustidagi ishlar lug‘at ishidan, matn o‘qilgandan keyin esa uning mazmuni yuzasidan berilgan savol va topshiriqlarni bajarishdan iborat bo‘ladi.

Yuqorida tavsiflangan vaziyatlarda tashabbusni o‘qituvchi o‘z zimmasiga olib, uy vazifasini belgilash muammolarini hal qilib borishi lozim. O‘tkazilgan so‘rovnomadan ma‘lum bo‘lishicha, o‘qituvchilarning uyga vazifa berishga bo‘lgan munosabatlari bir xil emas: ayrimlari uyga vazifa bermaydilar, uyga vazifa berishda darsda matnning qaysi jihatlari bo‘sh o‘zlashtirilganiga e‘tibor qilmaydilar (umumiy tarzda yondashadilar), uyga vazifa nima maqsadda berilishini aniq bilmaydilar, o‘quvchilarda uy vazifasiga qiziqish uyg‘otish kerakligiga mas‘uliyat bilan yondashmaydilar. Ayrim o‘qituvchilar uy vazifasining hajmi va miqdori qancha bo‘lishi lozimligidan xabardor emaslar.

Boshlang‘ich sinflar ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matni o‘qib o‘zlashtirish bir qator ta‘limiy tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Odatda, matni o‘qishdan avval lug‘at ishi bajarilsa-da, maxsus o‘quv lug‘ati mavjud bo‘lmagan sharoitda bu ish o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladi, shu bois lug‘at yordamida

o'qish mazmunida uyga vazifa berilmaydi. Asosiy ish matnni o'qish, matn ustida ishlash bo'lgach, ushbu bosqichda bajariladigan quyidagi kabi ish turlariga alohida-alohida to'xtalish lozim bo'ladi:

- matnni o'qish texnikasi ustida mashq qilish;
- matnni (ertak, she'r va h.k.) ifodali o'qish; matnni (ertak, she'r) yodlash;
- matn mazmunini tushunish;
- matn bilan bog'liq savol va topshiriqlarni (sarlavhalar topish, matnni qismlarga bo'lish va b.) bajarish.

Matnni o'qish dastlab o'qish texnikasini egallashga qaratiladi. O'qish texnikasi ustidagi ishlarni darslarning muhim bosqichlaridan biriga aylantirish orqali o'qish savodxonligini shakllantirish mumkin: o'quvchilar qayta-qayta o'qish mashqlari orqaligina o'qish ravonligi, o'rtacha tezligi va ifodaliligiga erisha oladilar. Shunga ko'ra ham o'qish texnikasi ustida darsda boshlangan ishlar uyda davom ettirilishi shart.

O'qish texnikasini mashq qilish jarayonida quyidagi holatlar ayrim-ayrim mashq predmeti qilib olinadi:

- harf va so'zlarni tanib ovozlantirish sur'atini oshira borish, shu orqali o'qishning o'rtacha tezligini egallash sari intilish;
- dastlab ikki so'zni, so'ng ma'lum muddatdan keyin uch va to'rt so'zni sintagmaga birlashtirib, orasida to'xtamsiz o'qish;
- belgi bildiruvchi so'z bilan narsa-buyum, shaxs yoki voqea-hodisaning nomini bildiruvchi so'zni; *kimni?*, *nimani?*, *qayerga?*, *qayerdan?* kabi so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlarni *nima qildi?*, *nima qilyapti?*, *nima qiladi?* so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlar bilan qo'shib (to'xtamsiz) o'qishni mashq qilish;
- gaplar orasida kattaroq (lekin juda katta bo'lmagan) to'xtam qilish;
- bir sintagma (to'xtamsiz aytilgan ikki so'z) bilan keyingi sintagma orasida kichik to'xtam qilib o'qish.

Uyga vazifa berganda ana shu besh xil masalaning qay biri ustida darsda ish olib borilgan bo'lsa, shuni mustahkamlash nuqtayi nazaridan kelib chiqib, uy vazifasi rejalashtiriladi. Sababi ularning har biri alohida ta'limiy birlik hisoblanib, yetarlicha mashq qilishni taqozo etadi. Ularga oid ko'nikma va malakalarning shakllanish jarayoni esa ko'pgina darslarda takror-takror tashkil etiladi. Bobda yuqoridagi holatlar shu tariqa izohlangan, uyga beriladigan vazifalar qanday bo'lishi kerakligi masalasiga oydinlik kiritilgan.

Matnni (ertak, she'r va h.k.) ifodali o'qish jiddiy ta'limiy birlik hisoblanadi. Ifodali o'qish o'quv materialining qaysi o'rinlarida ovozni ko'tarish yoki pasaytirish, bosh urg'uni qaysi so'zga qo'yish, ohang qanday bo'lishi kerakligi o'qituvchining tushuntirishini, o'quvchilarni olgan ko'rsatmalarini ifodali o'qish mashqi bilan mustahkamlashni talab etadi. Darsda boshlangan bu ish uyda davom ettirilgani ma'qul.

Matn mazmunini tushunish bilan bog‘lab savol va topshiriqlar ustida ishlash deganda ko‘proq darslikda berilgan matn yuzasidan o‘quvchilarni fikrlashga, mustaqil fikr yuritishga, shaxsiy hayotiy tajribasidan foydalanishga undash orqali ko‘zlangan maqsadga erishish anglanadi. Darslikdagi savol va topshiriqlar matn mazmuniga daxldor bo‘lmasa, u holda o‘qituvchining faollashuvi nazarda tutiladi. Savol va topshiriqlar ustidagi ish og‘zaki tashkil etilgan bo‘lsa, ularni yozma bajarish uyga vazifa qilib berilishi mumkin.

O‘qituvchi topshiriqni rejalashtirar ekan, bundan ko‘zlanadigan maqsad ma‘lum bo‘lishi, o‘quvchilarning imkoniyatlari topshiriqlarni bajarish jarayonida orttirgan tajribasi hisobga olinishi kerak. Sinfda o‘quvchilar faolligida boshlangan bu ishning qaysi jihatlari zaif ekanini kuzatib bilib borgan o‘qituvchi uyga beriladigan vazifani to‘g‘ri belgilay oladi. Ba‘zan o‘qituvchi topshiriqni bajarishning qaysi jihatlari sinfda bajarilmay qolganini o‘quvchilardan so‘rab bilib, muhokamaga qo‘yish va ularning faoliyati ongliligini ta‘minlashi kerak.

Mazkur bobda matn mazmunini bevosita tushunishga yordam beruvchi, matn mazmunidan qisman chetga chiquvchi ish turlari ham ajratilgan, izohlangan hamda uyga beriladigan vazifalar ko‘rsatilgan. Zero uyda bajarish uchun beriladigan har qanday vazifa o‘quvchilarning imkoniyati, bilim-ko‘nikmasi, saviyasi va hayot tajribasini sarhisob qiladiki, bu masalalarni bilish, muammolarni mahorat bilan hal etish o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini ta‘minlash garovidir. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklarida, asosan, ilmiy maqola tipidagi matnlar, qisman adabiy materiallar sifatida ertaklar, maqollar, topishmoqlar va she‘rlar berilgan. Bunday holatlarda mavzu o‘z leksik qatlami bilan namoyon bo‘lib, bir mavzu leksikasi ikkinchi mavzuni o‘rganishga yetarlicha yordam bera olmaydi.

Mavzu doirasida matndan chetga chiqish, qo‘shimcha savol-topshiriqlar havola qilish orqali matn mazmunini chuqurroq anglash va o‘zlashtirishga yordam berish o‘qish bo‘yicha erishiladigan samaradorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu ishlar o‘quvchilarni darsda o‘rgangan bilimlarini mustaqil ravishda guruhlashga, undan muhimini ajratishga va o‘qituvchining talablariga mos keladigan dalillar topishga o‘rgata boradi. Ularning oldida mustaqil mulohaza yuritishni talab qiladigan yangi savollar paydo bo‘ladi. Dalillar keltirish uchun nafaqat faktlar izlashga, balki ularni o‘z so‘zlari bilan yetkazishga ham harakat qiladilar. Bu holat ham ta‘limiy, ham tarbiyaviy jihatidan o‘ta muhim hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida uy vazifalarini tashkil etishning mazmuni, shakl va metodlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida matn ustida olib boriladigan ish turlariga uyg‘unlikda uyga vazifa berish jarayonini tashkil etish hamda keyingi darslarda uy vazifasini so‘rash bilan bog‘liq muammolar yechimlari bayon qilingan.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida uy vazifalarini tashkil etishda,

avvalo, didaktik talablarga amal qilinadi. Ushbu talablar uy vazifalarini belgilashdan tortib to ularning o'quvchilar tomonidan bajarilishini nazorat qilishgacha holatlarni nazarda tutadi. Bunda o'quvchilar faoliyatini ko'zda tutgan holda darsda matnni o'qish – uyga vazifa berish – uy vazifasini so'rash mutanosibligiga alohida ahamiyat beriladi. O'qituvchi dars uchun mo'ljallangan matnni o'qish texnikasi, matn mazmuni bilan bog'liq yoki undan bir qadar chetga chiqadigan ish turlarini rejalashtirar hamda bu ishlarni amalga oshirar ekan, yetarlicha mustahkamlanmay qolgan – bo'sh o'zlashtirilgan jihatini hisobga olish, muayyan ta'limiy masalalarni mo'ljallashga harakat qiladi. Bu masalalarni quyidagicha guruhlash mumkin:

- 1) uy vazifasini belgilash;
- 2) uy vazifasini tushuntirish;
- 3) o'quvchilarning uy vazifasini bajarish faoliyati;
- 4) o'quvchilardan uy vazifasini so'rash.

Uy vazifasini belgilashda nazarda tutiladigan jihatlar sirasida uning hajmi, miqdori katta rol o'ynaydi, shu bois ularning optimal darajada bo'lishini ta'minlash talab qilinadi. Q.Husanboyeva, R.Niyozmetovalarning “Adabiyot o'qitish metodikasi” nomli metodik qo'llanmasida ta'kidlanishicha, “Uy vazifalari ularni to'g'ri tashkil qila bilgandagina o'quvchilarning ma'naviy shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Aks holda ular salbiy natijalarni ham keltirib chiqaradi. Agar uy vazifalari o'quvchilarga metodik jihatdan puxta o'ylanmay berilsa, ular o'quvchilarni qalbakilikka, topshiriqlarni yuzaki bajarishga o'rgatadi”³.

O'qituvchi uy vazifasini belgilar ekan, keyingi darsda uning qay paytda nazorat qilinishini mo'ljallashdan tashqari, bajarilish sifatini qay tarzda nazorat qilishni (uy vazifasini so'rashni) ham rejalashtirib qo'yadi, chunki uyga beriladigan vazifa bilan uy vazifasini so'rashda mazmuniy uyg'unlik bo'lishi darkor. Masalan, matnni o'qish texnikasini mashq qilish uyga vazifa qilib berilgan bo'lsa-yu, darsga tayyorlikning o'lchovi matn mazmunini qayta hikoyalashdan iborat etib mo'ljallansa, bu jihat buzilgan bo'ladi. To'g'ri, uy vazifalarini so'rash darsning ijodiy qismiga aylantirilishi dars samaradorligini oshiradi, lekin uyga berilgan vazifa bilan uy vazifasini so'rashning mutanosib bo'lishini ham unutmaslik lozim. Mutanosiblikni ta'minlash ham o'qituvchining mahoratidan darak beradi.

Uy vazifasini tushuntirish darsning mas'uliyatli bosqichi hisoblanadi: o'quvchi topshiriq mazmuni va bajarish tartibini to'liq anglab yetsa, u uyda vazifani ongli ravishda bajaradi. Eng muhimi, o'quvchilarga to'g'ri maslahat berish, yo'nalishni to'g'ri ko'rsatishdir. O'qituvchi o'quvchilarning uy vazifasini qay tarzda bajarishlarini ko'z oldiga keltira olishi lozim. Bu hol ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. O'qituvchi

³ Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 250 b.

o'quvchilarning ish turiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida matnning qaysi jihati bo'sh o'zlashtirilgan bo'lsa, shu ish turini tanlasin, degan topshiriqni berishi mumkin. Zero bir matn asosida bir necha xil uy vazifalari ko'zda tutiladi. O'quvchilar shuni bilgan holda o'zlari uchun zarur ish turini tanlash va ishga ijodiy yondashish imkoniyatidan ancha ruhlanadilar.

Uy vazifasi matnni o'qish texnikasi bo'lsa (1-sinfda), o'quvchi 3–4 gapli matndagi harflarni tezroq tanish va ovozlantirishni mashq qiladi. O'qituvchi darsda o'qilgan matn misolida bolalar yo'l qo'yayotgan talaffuz xatolarini ko'rsatib, uyda mashq qilish kerakligini ta'kidlab boradi. Shuni uy vazifasi qilib topshirar ekan, keyingi darsda matnni o'qitish orqali tekshirilishini aytadi. Bir-ikki nafar o'quvchidan uyga qanday vazifa topshirilganini so'rab, uni yana ham qat'iylashtiradi, kundalik daftariga yozdirib qo'yadi. Uyga sintagmatik o'qishni (dastlab berilgan so'z birikmalarini so'zlar orasida to'xtam qilmay o'qish, keyinroq gaplardagi ajratilgan so'zlar juftini o'zaro to'xtamsiz o'qishni) mashq qilish topshirilsa, o'quvchilar ikki so'zni bir so'zday (orasida to'xtam qilmay) o'qishni mashq qiladilar. Bu ish gaplar juftlari, matn ustida ishlash jarayonida boshlanadi. Gaplar juftlari darsda o'qib-o'rganilgan matndan olinadi. Masalan, 1-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligining (1-qism) 42-betidagi “Suvning Vatani” matnidan: “Baland tog'lar, uning suvlari, yam-yashil o'tloqlar, o'tlab yurgan, qizdirgan ekan, irmoqqa aylanibdi, bulutga aylanibdi”; “Asalari qanday boqiladi?” matnidan ham (54-bet) shu kabi so'z birikmalari ajratiladi.

Sintagmatik o'qish uchun matn tanlash qiyin, chunki matndagi gaplarda bir so'zdan iborat sintagma, uch so'zdan iborat sintagma ham uchraydi. Bunday vaziyatda o'qituvchining o'zi yo bir nechta gap tuzib, xattaxtaga yozishi va bolalarga ajratilgan so'zlar juftini o'zaro to'xtamsiz o'qish hamda ko'chirib olishni taklif etishi mumkin. Shuningdek, matndagi bir so'zli sintagmalarni ham ta'kidlab borib, kerak joyda bir so'zning o'zini talaffuz qilish, zarur o'rinda ikki so'zni qo'shib aytish muhimligini tushuntirib, talaffuz qildirishi lozim bo'ladi. Ta'lim jarayonida asta-sekin ikkinchi holatga ustuvor ahamiyat beriladi. Ba'zan matndagi biror gapni sintagmatik o'qishga undashdan oldin gapning o'zini aytirish maqsadga muvofiq: o'quvchi gapni sintagmatik aytadi. Unga matnni o'qish paytida ham shunday talaffuz qilish zarurligini eslatib turish darkor. Masalan:

“Sabzavotga boy sho'rva” matnidagi gaplarda quyidagi ikki so'zli sintagmalar ajratib ko'rsatiladi: *suv quyung, to'g'rab soling, qaynashini kuting, suv yuzasida, hosil bo'lgan, olib tashlang, esdan chiqmasin, 30 daqiqa (qolganda), foydali sho'rva.*

Qisman 2-sinfda, asosan, 3–4-sinflarda matnlardagi uch so'zdan iborat sintagmalarni o'qish mashq qilinadi. O'qituvchi matndagi biror gapni aytib ko'rish, aytilgan gapda bir so'zning yolg'iz o'zini, ikki yoki uch so'zni qo'shib, bir so'zday qilib talaffuz qilganini ta'kidlab, og'zaki nutqda gaplar qanday

aytilsa, matndan uni shunday o'qish kerakligini osondan qiyinga qarab o'rgatib boradi. Uy vazifasi matnni o'qish tezligini oshirish bo'lsa, darsda o'qituvchi sekund ko'rsatkichi bo'lgan soatdan foydalanib, o'quvchilarning matnni o'qish tezligini aniqlaydi. Buning uchun avval o'tiladigan matn necha so'zdan iborat ekanini belgilab qo'yadi. O'qituvchining o'qishidan keyin yaxshi o'zlashtiradigan uch-to'rt o'quvchi matnni o'qiydi, ularning o'qish sur'ati ma'lum bo'lgach, uyda o'qish tezligini bir oz oshirish mashqini bajarish topshiriladi. Bolalar ham uyda sekund strelkali (ko'rsatkichli) soatdan foydalanadilar.

Uy vazifasi matnni ifodali o'qish bo'lsa, bu borada o'quvchilarga beriladigan bilim, hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarning asosiy yuki dars zimmasiga tushadi. Darsda matnni ifodali o'qiy boshlagan o'quvchigina uyda ushbu ko'nikmani ma'lum darajada bexato mustahkamlashi mumkin. Uy vazifasi matn mazmunini chuqurroq tushunish bo'lsa, shunga xizmat qiluvchi quyidagi kabi ish turlaridan birini ifoda etadigan topshiriqlar beriladi: matndan notanish so'zlarni daftarga yozib chiqish, matn mazmunini bir necha gap bilan gapirib berish, matnga reja tuzish, matn mazmuni yuzasidan savol, jadval yoki grafiklar tuzish.

Bobda o'quvchilarga matn mazmunidan chetga chiqish tavsifida beriladigan uy vazifalarini tashkil etish masalalariga ham alohida e'tibor berilgan. Boshlang'ich sinflar ona tili va o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni o'qish materiallari asosida mustaqil fikrlashga o'rgatishning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati katta. Tabiat hodisalari, jamiyatdagi o'zaro munosabatlar, inson hayoti haqidagi ma'lumotlar o'quvchilarni o'yga solishi, ular haqida mushohada yuritishi matn doirasida cheklangan holda kechsa, matn mazmunidan chetlashish, fikrlash erkinligi, ko'proq o'ylash uchun yo'l ochadi. Zero matnlardagi ma'lumotlarga, hayot haqiqatlariga qiziqish uyg'otish uchun ularda keltirilgan faktlar bilan chegaralanib bo'lmaydi. Uy vazifasini olgan o'quvchi o'zida uyg'ongan fikrlarga dastlab matndan javob qidiradi, voqea-hodisalarning sabablari haqida mushohada yuritadi va ularni tushunishga harakat qiladi, o'z hayot tajribasini ishga soladi, ko'rgan-kechirganlarini ko'z oldiga keltiradi. Bu jarayonlar darsda to'liq amalga osha olmaydi: u uyda o'quv matni ustida ishlash zaruriyatini his etadi.

Ishning o'qish darslarida uy vazifasini so'rash haqidagi qismi o'ziga xos metodikani ifoda etadi. Q.Yo'ldoshev uy vazifasini so'rashga nisbatan quyidagi talablarni qo'yadi: "O'quvchilardan uy vazifasini so'rash jarayonida nafaqat ularning olgan bilimlarini aniqlash, balki bu bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va tizimga solish bo'yicha keyingi ishlar ham tekshirilishi kerak. Bu bilan o'quvchilarning mustaqil ishlashlari va o'qiganlari asosida mulohaza yuritishlariga keng imkoniyat yaratiladi"⁴. Ba'zan darsliklarning "Uy

⁴ Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 38 b.

vazifasini so‘rash” ruknida nazoratga tortilgan topshiriqlar “Uyga vazifa berish” ruknida belgilanganidan ko‘payib ketadi. O‘qituvchi ana shu farqni yo‘qotmasa, bosqich kutilgan natijani bermaydi, o‘quvchilarning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Darslarning uy vazifasini tekshirish bosqichidan matn mazmuniga doir yoki ushbu mazmundan biroz chetga chiqadigan topshiriqlarning bajarilish hajmi va sifati; o‘quvchilarning mustaqil fikrlash darajasi; egallanadigan bilim, ko‘nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi; sinfdoshlarining javobini to‘ldirish va tuzatishdagi ishtiroki kabi bir qator maqsadlar ko‘zda tutiladi.

Bobda uy vazifasini so‘rash mobaynida bilimlarning to‘g‘ri, ongli o‘zlashtirilgani, to‘liqligi, bilimi bo‘sh o‘quvchilarni kuchlilarga yetkazishga harakat qilish, o‘quvchilarning o‘z bilimiga ishonchini oshirish, o‘zlashtirilgan bilimlarni chuqurlashtirish; o‘quvchilarga beriladigan bilimlarga aniqlik kiritish; o‘quvchilar nutqining faollashuvi; mantiqiy fikrlash saviyasi; o‘quvchilarning o‘tilgan matnga diqqat bilan yondashishi, bilim olishga qiziqishning ortishi, dars bosqichidan kutilgan samaradorlik ta‘minlanishi, nostandart vaziyatlarda o‘z bilimidan foydalana olish malakasi, yaxshi o‘zlashtiradigan o‘quvchilarning sinfdoshlariga maslahat berish, yordam ko‘rsatish layoqati, bilimlarni o‘zlashtirishning ahamiyati ta’kidlanadi.

Uyga berilgan vazifa matn mazmunida yoki undan chetga chiqadigan mazmunda bo‘lishiga qarab uning bajarilishini tekshirish ham ikki turli bo‘ladi:

- 1) matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so‘rash;
- 2) o‘quvchilarga matn mazmunidan chetga chiqish tavsifida beriladigan uy vazifalarini so‘rash.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida uy vazifalarini tashkil etishga oid tajriba-sinov ishlarining natijalari va tahlili**” deb nomlangan. Bobda uy vazifasini darsda matn ustida olib borilgan ishlarga mutanosib ravishda belgilash, keyingi darsda uy vazifasini so‘rash orqali uning qay tarzda bajarilganini tekshirishga oid ishlab chiqilgan tavsiyalarning samaradorligini o‘rganish va obyektiv xulosalar chiqarish zarurati asoslangan, o‘qituvchilarni tajriba-sinov ishlariga tayyorlash mazmuni yoritilgan. Zero tajriba-sinovning to‘g‘ri olib borilishi dissertatsiyada bayon qilingan tavsiyalardan xabardor, ularni puxta o‘zlashtirgan o‘qituvchilarga bog‘liq, ya’ni uy vazifasini tashkil etishga doir tavsiyalarda ko‘rsatilgan barcha jarayonni tasavvur qila oladigan o‘qituvchigina kutilganidek ish olib bora oladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida beriladigan uy vazifalarini tashkil etishga oid tajriba-sinov ishlari quyidagi bosqichlarda o‘tkazildi:

1. **Asoslovchi tajriba bosqichi** (2020–2021-yillar). Unda o‘rta maktablarning boshlang‘ich sinflarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilar o‘rtasida anketa (so‘rovnoma)lar, individual suhbatlar uyushtirildi. Anketa (so‘rovnoma)lar o‘qish darslarida beriladigan uy vazifalarini tashkil etishda amalda qo‘llanayotgan usul va ilg‘or tajribalarni aniqlashda yordam berdi.

Ushbu jarayonda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida beriladigan uy vazifalarini tashkil etishning mavjud ahvoli o‘ganilib tahlil qilindi va baholandi, bu boradagi kamchiliklar aniqlandi, yuqori samaradorlikka erishish imkonini beruvchi ishlar rejasi hamda innovatsion xarakterdagi metodik ishlanmalar tayyorlandi.

2. **Shakllantiruvchi tajriba bosqichi** (2021–2022-yillar). Mazkur bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida beriladigan uy vazifalarini tashkil etishga oid maxsus metodika, amaliyot uchun ishlab chiqilgan innovatsion xarakterdagi metodik ishlanmalar asosida darslar tashkil etildi. Bu jarayonda o‘qish darslarida beriladigan uy vazifalarini tashkil etish jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan metodlarning samaradorligiga ahamiyat berildi.

3. **Yakuniy tajriba bosqichi** (2022–2023-yillar). Bu bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida beriladigan uy vazifalarini tashkil etishga oid eng maqbul usullarning amaliyotga mosligi va samaradorligi baholanib, maxsus metodika mazmuniga zarur qo‘shimchalar hamda o‘zgartirishlar kiritildi. Ushbu bosqichning tahliliy jarayonida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirishga oid yaxlit tizimli ishlar to‘g‘risida xulosalar chiqarildi va amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Uy vazifalarining samarali ekanini isbotlash va asoslash maqsadida tajriba-sinov materiallari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun 2016–2018-yillarda nashr etilgan “O‘qish kitobi”, 2021–2022-yillarda nashr etilgan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsliklariga yozilgan metodik qo‘llanmalardagi tavsiyalarning bevosita matn bilan bog‘liq qismi va matni o‘qish texnikasi, matn mazmunini tushunish, matn mazmunidan chetga chiqqan holda bajariladigan ishlarni qo‘shgan holda uyga beriladigan vazifa belgilangan. Natijada amaliyotda (nazorat sinfida) umumiy ish turlari asosida berilgan yoki berilmagan uy vazifalari, tajriba-sinov sinflarida takomillashtirilgan, moslangan ish turlari asosida qat‘iy belgilangan uy vazifalari sifatida aks ettirilgan. Quyida bu jihatni 1-sinf darslari misolida qiyoslaymiz (1-jadval).

1-jadval

Tajriba-sinov sinflarida takomillashtirilgan, moslangan ish turlari asosida qat‘iy belgilangan uy vazifalari (“Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsligi misolida)

Nazorat sinfida	Tajriba sinfida
<p style="text-align: center;">Oshxonamiz ramzi</p> <p>Matn o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi, o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda matnni kuzatib borishadi. Keyin o‘quvchilar matnni ichda o‘qishadi. Mazmun o‘qituvchining o‘qib berishidan so‘ng tushunarli bo‘ladi, ichdan o‘qish ham tezroq amalga oshadi.</p> <p>O‘quvchilar matndan tushungan ma‘lumotlari asosida 3 ta gapdan iborat fikr yozishlari kerak. Bunda tinish belgilari va</p>	<p style="text-align: center;">Oshxonamiz ramzi</p> <p>Matn o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi, o‘quvchilar o‘qituvchi bilan birgalikda matnni kuzatib borishadi. Keyin o‘quvchilar matnni ichda o‘qishadi. So‘ng o‘qish texnikasi ustida ish olib boriladi</p> <p>Uyga o‘qish texnikasiga doir vazifa topshiriladi.</p>

<p>bosh harflar imlosiga rioya etishlari lozim. (12-bet, uy vazifasi ko'rsatilmagan).</p>	
<p style="text-align: center;">Ertakdagi qahramon</p> <p>Mavzuning 2-soatida "Serkaboboning hiylasi" mavzusi o'qitiladi. Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga avvalgi darsda boshlangan "Ertakdagi qahramon" mavzusi davom etishi aytiladi. O'quvchilar ertakning audiomatnini tinglashadi. Berilgan rasmlar ichidan ertakda ishtirok etgan va ishtirok etmagan qahramonlarni belgilab chiqishadi. Bundan so'ng ertak mazmuni bo'yicha darslikning 11-betidagi savollarga javob beriladi. (10-bet, uy vazifasi ko'rsatilmagan)</p>	<p style="text-align: center;">Ertakdagi qahramon</p> <p>Mavzuning 2-soatida "Serkaboboning hiylasi" mavzusi o'qitiladi. Darsning tashkiliy qismidan so'ng bolalarga avvalgi darsda boshlangan "Ertakdagi qahramon" mavzusi davom etishi aytiladi. O'quvchilar ertakning audiomatnini tinglashadi. Berilgan rasmlar ichidan ertakda ishtirok etgan va ishtirok etmagan qahramonlarni belgilab chiqishadi. Bundan so'ng matnni tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ertak mazmuni bo'yicha mustaqil savol tuzish vazifasi uy ishi sifatida beriladi.</p>
<p style="text-align: center;">She'r bo'ladigan so'zlar</p> <p>Mavzuning 4-soati uchun Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'ri mavzu qilib olingan.</p> <p>Tekinxo'r so'zining ma'nosi ustida bahs-munozara tashkil qilinadi. She'r ifodali o'qib beriladi. Maqsad she'rdagi ritmni bolaga his qildirish. O'qituvchi she'ni kamida 2 marta o'qib berishi kerak. So'ng o'quvchilarga o'qitadi. O'quvchilar she'ni ohangga rioya qilib o'qishlariga erishish zarur. She'r har bir o'quvchiga o'qitiladi. Shundan so'ng darslikning 44-betidagi savollarga javob beriladi. 44-betdagi keyingi mashqqa o'tiladi.</p> <p>Unda she'rning nasriy bayoni berilgan. U matn o'quvchilarga o'qitiladi. 2-3 nafar o'quvchi o'qigach, savollarga o'tiladi. Savolni o'qituvchining o'zi o'qib bergani ma'qul. Savol o'rtaga tashlanadi va bolalardan she'ni yana bir o'qib, ularga javob topish so'raladi. (42-bet)</p>	<p style="text-align: center;">She'r bo'ladigan so'zlar</p> <p>Mavzuning 4-soati uchun Anvar Obidjonning "Tekinxo'r" she'ri mavzu qilib olingan.</p> <p>Tekinxo'r so'zining ma'nosi ustida bahs-munozara tashkil qilinadi. She'r ifodali o'qib beriladi. Maqsad she'rdagi ritmni bolaga his qildirish. O'qituvchi she'ni kamida 2 marta o'qib berishi kerak. So'ng o'quvchilarga o'qitadi. O'quvchilar she'ni ohangga rioya qilib o'qishlariga erishish zarur. She'r har bir o'quvchiga o'qitiladi. Shundan so'ng, darslikning 44-betidagi savollarga javob beriladi. 44-betdagi keyingi mashqqa o'tiladi.</p> <p>Unda she'rning nasriy bayoni berilgan. U matn o'quvchilarga o'qitiladi. 2-3 ta o'quvchi o'qigach, savollarga o'tiladi.</p> <p>Uyga she'ni yodlash vazifasi beriladi. Maqsad sintagmatik o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.</p>
<p style="text-align: center;">Gugurtga qadar</p> <p>Darsning kirish qismida tashkiliy qismdan so'ng: "Ayting-chi, gugurt qanday paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?" savoli bilan murojaat qilinadi. Shundan so'ng matnni ovoz chiqarmay ichda o'qishadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil o'qishlariga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollarga og'zaki javob berishadi. Bu jarayonda bergan javoblari orqali ularning o'qib tushunish malakalari tekshirilib, og'zaki nutqida yo'l</p>	<p style="text-align: center;">Gugurtga qadar</p> <p>Darsning kirish qismida tashkiliy qismdan so'ng: "Ayting-chi, gugurt qanday paydo bo'lgan deb o'ylaysiz?" savoli bilan murojaat qilinadi. Shundan so'ng matnni ovoz chiqarmay ichda o'qishadi. Bunda o'quvchilarning mustaqil o'qishlariga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar matnni o'qib bo'lgach, darslikdagi savollarga og'zaki javob berishadi. Bu jarayonda bergan javoblari orqali ularning o'qib tushunish malakalari tekshirilib, ushbu matnda</p>

qo‘ygan xato va kamchiliklar tuzatilishiga e‘tibor qaratiladi. (86-bet, uy vazifasi ko‘rsatilmagan)	ishlatilgan ayrim so‘zlar (yashin, o‘t ketmoq, tun-u kun, qo‘riqlamoq, javob bermoq, shu tariqa, keyinchalik, ixtiro qilmoq, xavfsizlik), so‘z shakllari (bilishmagan, yashin tushgan, o‘chib qolmasligiga va b.) mazmunini tushunishlari uchun lug‘at ustida ishlanadi. Uyga matnni ifodali o‘qishga doir vazifa topshiriladi.
---	---

Boshlang‘ich sinflarda mavzular yuzasidan uy vazifalarini tashkil etish bo‘yicha olib borilgan tajriba-sinov ishlarida o‘quvchilarning o‘qish texnikasi; sintagmatik o‘qish; o‘qish tezligi; matn mazmunini tushunish darajasini aniqlash masalalariga e‘tibor qaratildi. Shular asosida uy vazifalarini tashkil etish bo‘yicha parametrlar belgilab chiqildi. Yakunida nazorat va tajriba sinflarida o‘qish bo‘yicha erishilgan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlari shu parametrlar bo‘yicha hisoblab chiqildi. Masalan, bir daqiqada o‘qish sur‘ati nazorat sinfida o‘rtacha 20–25 so‘z, tajriba sinfida 30–40 so‘zga ortgani kuzatildi.

Tajriba-sinov ishlari Samarqand viloyati Samarqand shahar 68-, Samarqand viloyati Toyloq tuman 5-, Qashqadaryo viloyati Ko‘kdala tumanidagi 33-, 46-, Surxondaryo viloyati Qiziriq tumanidagi 6-maktablarda olib borildi. Tajriba va nazorat sinfdagi o‘quvchilarning o‘qish texnikasi, sintagmatik o‘qish, o‘qish tezligi va matn mazmunini tushunish darajalari aniqlandi:

“A” – yuqori darajaga kiruvchi o‘quvchilar o‘qish texnikasi, sintagmatik o‘qish, o‘qish tezligi, matn mazmunini tushunishga ko‘ra DTS talablarini belgilangan ko‘rsatkichdan yuqori darajada bajara oladi. Berilgan uy vazifalarini mustaqil bajara oladi, javoblarini dalillar bilan asoslaydi.

“B” – o‘rta darajaga kiruvchi o‘quvchilar DTS talablarini bajara oladi. Matnni ifodali va ongli o‘qishga bir oz qiynaladi, sintagmatik o‘qish ko‘rsatkichlari ham o‘rta darajada rivojlangan, o‘qish tezligi talablariga javob bera oladi (2-jadval).

2-jadval

Respondentlarning matnni o‘qish tezligi va tushunish darajasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari

Tajriba-sinov bosqichlari	Sinflar	Tajriba sinflari			Nazorat sinflari		
		O‘quvchilar soni	“A”	“B”	O‘quvchilar soni	“A”	“B”
Tajriba boshida	1–4-sinflar	1920	602	1318	1904	591	1313
Tajriba yakunida	1–4-sinflar	1920	1136	784	1904	800	1104

Keltirilgan natijalar tajriba-sinov ishlarining sifat ko‘rsatkichini aniqlash

imkonini beradi.

Ma'lumki, $\bar{X} = 4,54$; $\bar{Y} = 4,22$; $\delta_n = 0,48$; $\delta_m = 0,4$ ga teng.

Ko'rsatilgan miqdorlar asosidagi sifat ko'rsatkichlari:

$$K_{o'db} = \frac{(\bar{X} - \delta_n)}{(\bar{Y} + \delta_m)} = \frac{4,54 - 0,48}{4,48 + 0,4} = \frac{4,06}{4,88} = 0,83 < 1;$$

$$K_{bdb} = (\bar{X} - \delta_n) - (\bar{Y} - \delta_m) = (4,54 - 0,4) - (4,22 - 0,4) = 4,14 - 3,82 = 0,32 > 0;$$

Bu yerda: *o'db* - o'sish darajasini baholash; *bdb* - bilish darajasini baholash.

Yuqoridagi natijalarga asoslanib, tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichi hisoblanganda, rivojlanish dinamikasi samaradorligini baholash mezoni birdan kichkinaligi ($K_{o'db} = 0,83 < 1$) va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ($K_{bdb} = 0,32 > 0$) ko'rish mumkin. Bundan ma'lum bo'ladiki, tajriba guruhi ko'rsatkichlari nazorat guruhidagilardan yuqori miqdorga ega. Ushbu ko'rsatkichlar foizlarda hisoblanganda, tajriba guruhidagi samaradorlik nazorat guruhiga nisbatan 16,3% ga oshishiga erishilgani aniqlandi:

$$\frac{\bar{X}}{2} \cdot 100\% - \frac{\bar{Y}}{2} \cdot 100\% = \frac{4,54}{2} \cdot 100 - \frac{4,22}{2} \cdot 100 = 0,16\%$$

Keltirilgan statistik tahlillar boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida uyga vazifalarni tizimli ravishda spiralsimon tarzda amalga oshirishni takomillishtirish bo'yicha natijadorligini oshiradi, degan farazning tajriba-sinov natijalariga ko'ra tasdiqlanganini e'tirof etish mumkinligiga asos yaratadi. Bu esa tajriba-sinov ishlarida shakllantirilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlari olib borilgan tadqiqot ishlari mazmuni hamda mohiyatiga mos ravishda tanlanganini ifodalaydi.

XULOSA

1. Boshlang'ich sinflarda uyga vazifa berish va uy vazifasini so'rash o'qish darslarining sifat-samaradorligini oshiruvchi omil sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning kognitiv va kreativ kompetensiyalari, mustaqil fikrlash layoqatlarini shakllantirish orqali tafakkurini o'stirish uchun xizmat qiladi. Ta'lim olishga bo'lgan mas'uliyatni tarbiyalaydi, aqliy faolligini kuchaytiradi, matnlarni o'qib o'rganish imkoniyatlarini yuzaga keltiradi; o'quvchilarning yosh kitobxon sifatida matnni o'qib-o'rganish, boshqalarning nazorati va ko'magisiz shug'ullanish, tadqiq etish hamda qaror qabul qilish, o'z-o'zini baholash kabi malakalarini shakllantiradi.

2. "O'qish kitobi", "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida uyga vazifa berish va uy vazifasini so'rashga doir topshiriqlar tahlili matn ustida olib boriladigan ishlar bilan o'zaro mutanosib emasligini ko'rsatdi. Darsda yetarlicha

mustahkamlanmay qolgan bilimlar, ish hajmi va miqdori, shuningdek, psixologik, pedagogik va didaktik talablarga kutilganidek amal qilinmasligi matn asosida egallanadigan ko'nikma va malakalarga doir strategik va taktik maqsadlar belgilashni taqozo etadi.

3. Uy vazifasini darsda matnni o'qish, matn mazmunini tushunish va o'zlashtirish ishlari bilan mutanosib tarzda tashkil etish o'quvchilarni savodli kitobxon sifatida kamol toptirish, mustaqil ishlashga, ijodiy fikrlashga o'rgatish orqali ularning tafakkurini o'stirish yo'nalishida belgilash; darsda matn mazmuni doirasida bajariladigan ish turlari; matn mazmunidan qisman chetga chiqqan holda bajariladigan ish turlari mutanosibligini ta'minlash; uy vazifasi bilan bog'liq dars bosqichlari mazmunini rejalashtirishda o'quvchilarning bilim saviyasi va imkoniyatlarini hisobga olish asosiy didaktik talablardir.

4. Matn mazmuni doirasida uyga beriladigan vazifalar sifatida matnni o'qish texnikasi, sintagmatik o'qish, ifodali o'qish va o'qish sur'ati bilan bog'liq ravishda belgilanadigan uy vazifalari; matn mazmuni yuzasidan savollarga javob berish, matn mazmunini qayta hikoya qilish, kalit so'zlarni tanlash, reja tuzish kabi uy vazifalari turlarini ajratish maqsadga muvofiq.

5. Bolalarning hayot tajribasi, ko'rgan-kechirganlariga tayanib beriladigan savollar; mavzuga doir tushunchalarni jadvalga solish, grafik tasvirlash; darslikdagi suratlar ustida ishlash; matndagi tasvir asosida rasm chizish; matnda keltirilgan faktlar, maqol yoki matal, biror tushunchaga munosabat bildirib bir nechta gap yozish; boshlanishi berilgan matnni davom ettirish, uy inshosi yozish kabilar matn mazmunini bevosita tushunishga yordam beruvchi ish turlari sifatida hayot bilan aloqadorlikni ta'minlaydi.

6. O'quvchilarning har bir turdagi uy vazifasini bajarish faoliyatini tashkil etish jarayoni topshiriq shartini oxirigacha anglab yetadigan qilib tushuntirish, bajarish namunasini ko'rsatish, bir-ikki bolaga bajartirib ko'rish, kelasi darsda uy vazifasining qay tarzda bajarilganini so'rash va qay tarzda baholanishini ma'lum qilish, shu yo'l bilan uy vazifasining maqsadi va erishiladigan natijasiga doir onglilikni ta'minlash, darsning boshqa bosqichlari bilan bir tizimga birlashtirishdan iborat.

7. Matnni o'qish texnikasi (matnni ovoz chiqarib o'qish, sintagmatik o'qish, o'qish tezligi, ifodali o'qish) bilan bog'liq ta'lim mazmuniga darsliklarda yetarli e'tibor berilmagani, mashqlar tizimli bo'lmagani uchun darslarning matn ustida ishlash, uyga berilayotgan vazifalarni onglilik ta'minlanadigan darajada tashkil etish o'qituvchidan alohida e'tiborni talab etadi. Ayniqsa, o'quvchilarda sintagmatik o'qish, ifodali o'qishga doir bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayoni uzluksizlik, muntazamlilik asosidagi tadrijiy takomilni ta'minlovchi ishlarni taqozo etadi.

8. Matnni ifodali o'qish borasida o'quvchilarga beriladigan bilim, hosil qilinadigan ko'nikma va malakalarning asosiy og'irligi darsdagi matn ustida ishlash zimmasiga yuklanadi, shu asosdagina ushbu ish turini uyga vazifa qilib

topshirish mumkin bo‘ladi. Uyga matn mazmunini chuqurroq tushunish vazifasi qo‘yilganda savollarga javob berish, matndan notanish so‘zlarni daftarga yozib chiqish, matn mazmunini qayta hikoya qilish, matnga reja tuzish, matn mazmuni yuzasidan savollar tuzish, jadval yoki grafiklar tuzish kabi ish turlari bajariladi.

9. Uy vazifasi boshlanishi berilgan matnni davom ettirish mazmunida rejalashtirilsa, darsning matn ustida ishlash bosqichida ikki-uch o‘quvchiga o‘z variantini aytirish; uyga berilgan vazifa matndagi biror tushuncha, ertak qahramonining xatti-harakati haqida fikr bildirish bo‘lsa, bu ishni darsda og‘zaki bajara boshlash, o‘z fikrlarini uyda yozma bayon qilishni topshirish; vazifa matn mavzusida uy inshosi (yoki hikoya, maqola) yozish bo‘lsa, darsning matn ustida ishlash bosqichida biror mavzuda inshoga tayyorlovchi ish turi – bir nechta gap yozish, darsda matnning ayrim til xususiyatlari tahlili o‘tkazilsa, uyga ko‘rsatilgan til birliklarining tahlilini bajarish topshirig‘i beriladi.

10. Matn mazmuni doirasida beriladigan uy vazifasini so‘rash uyga berilgan vazifa bilan mutanosiblikda amalga oshiriladi: uy vazifasi matnni o‘qish texnikasi bo‘lsa, keyingi darsda avvalgi darsda matnni sustroq o‘qigan bir necha o‘quvchiga o‘qitib baholash; uyga sintagmatik o‘qishni mashq qilish topshirilsa, keyingi darsda so‘zlar juftini, ayrim gaplarni, sintagmatik o‘qishni nazorat qilish; uy vazifasi matnni o‘qish tezligini oshirish bo‘lsa, navbatdagi darsda sekund ko‘rsatkichi bo‘lgan soatdan foydalanib, 3–4 o‘quvchining o‘qish tezligini tekshirish usullari qo‘llanadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

o‘qish savodxonligi fanini o‘qitishga oid o‘quv adabiyotlariga uy vazifasini belgilashda amal qilinishi lozim bo‘lgan asosiy didaktik talablarni kiritish;

uy vazifasini so‘rash orqali o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasini aniqlashda xalqaro baholash tizimi talablarini joriy qilish;

boshlang‘ich sinflar o‘qish savodxonligi darslarida uyga vazifa berish va uning bajarilishini tashkil etishga oid raqamli ta’limni yo‘lga qo‘yish;

o‘qituvchilar uchun boshlang‘ich sinflar o‘qish savodxonligi darslarida uyga vazifa berish va uning bajarilishini tashkil etishga oid “Mahorat darslari”ni yo‘lga qo‘yish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА
И ЛИТЕРАТУРЫ ИМЕНИ АЛИШЕРА НАВОИ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ
УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ**

КОРАБОЕВ ХУСНИДДИН КАМОЛОВИЧ

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ
ДОМАШНИХ ЗАДАНИЙ НА УРОКАХ ЧТЕНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ
КЛАССАХ**

**13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (начальное
образование)**

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD)

Ташкент 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2021.1.PhD/Ped2256.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы имени Алишера Навои.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.tsuull.uz) и информационно-образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Ниёзметова Роза Хасановна

доктор педагогических наук, профессор

**Официальные
оппоненты:**

Сафарова Рохатой Гайбуллаевна

доктор педагогических наук, профессор

Хазраткулов Муталлиб Рашидович

доктор философии по педагогическим
наукам (PhD), доцент

Ведущая организация:

Самаркандский государственный
педагогический институт

Защита диссертации состоится “_____” _____ 2026 года в _____ часов на заседании разового Научного совета на основе Научного совета DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 при Ташкентском государственном университете узбекского языка и литературы им. Алишера Навои. (Адрес: 100100, Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуф Хос Хожиб, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои (зарегистрирован по №_____). (Адрес: 100100, город Ташкент, Яккасарайский район, улица Юсуф Хос Хожиб, 103. Тел.: (99871) 281-42-44; факс: (99871) 281-42-44; (www.tsuull.uz)).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(реестр протокола рассылки № _____ от «_____» _____ 2026 года).

С.Аширбоев

Председатель разового совета при
научном совете по присуждению ученых степеней,
д.филол.н., профессор

К.У.Пардаев

Секретарь разового совета при
научном совете по присуждению ученых степеней,
д.филол.н., профессор

С.Х.Мухамедова

Председатель разового научного семинара при
научном совете по присуждению ученых степеней,
д.филол.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В недавно принятой в мире концепции до 2030 года образование признается главной движущей силой развития, важной деятельностью, ведущей к достижению целей устойчивого развития, предусматриваются вопросы качественного образования, совершенствования методов оценки результатов обучения и усвоения, широкого использования эффективных методов развития интеллектуального уровня обучающегося. В частности, в США, Китае, Новой Зеландии и Италии широко изучаются влияние домашнего задания на восприятие образования учащимися, влияние домашних заданий на успеваемость учащихся, влияние различных методов выполнения домашних заданий на мотивацию и активность учащихся, проблемы правильной организации этапов урока, связанных с домашними заданиями в определенной пропорции, их запросом и оценкой учащихся.

В ведущих высших учебных заведениях и научно-исследовательских центрах мира ведутся исследования процессов духовного и физического развития личности, интеграции категорий социально-культурной деятельности. В частности, с начального образования уделяется особое внимание вопросам развития творческих способностей учащихся по работе над текстом, на основе творческих заданий, постановке учебных заданий, ориентированных на поиск в этой области, расширению художественно-эстетических возможностей домашних заданий в формировании самостоятельного мышления.

Научно обоснованные идеи, новые подходы к организации начального образования в нашей республике дают положительный эффект. В это время возникает необходимость уточнения методических аспектов организации домашних заданий на уроках чтения начальных классов. Определение задач для выведения качества начального образования на новый уровень имеет большое значение для обеспечения непрерывного участия нашей страны в международной программе оценки качества образования PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study – международное исследование, определяющее уровень чтения и понимания текста), а также для достижения эффективных результатов, совершенствования методики, основанной на инновационном подходе к эффективной организации этапов урока, связанных с выполнением домашних заданий в определенной пропорции на уроках чтения в начальной школе, их назначением и оценкой учащихся.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит для реализации Указов Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УП-60 “О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 29 апреля 2019 года №УП-5712 “О совершенствовании системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года”,

Постановления Президента Республики Узбекистан от 3 сентября 2017 года №ПП-3304 “О деятельности Министерства народного образования Республики Узбекистан”, Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан от 6 апреля 2017 года №187 “Об утверждении государственных образовательных стандартов общего среднего и среднего специального профессионального образования” и других задач, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики Ю “Формирование системы социальных, правовых, экономических инновационных идей информационного общества и демократического государства и пути их реализации”.

Степень изученности проблемы. Повышение эффективности урока чтения начальных классов, мероприятия, занимающие важное место в совершенствовании его содержания – постановка домашнего задания в определенной пропорции, проблемы правильной организации этапов урока, связанных с разъяснением, опросами и оценками учащихся были исследованы с различной точки зрения такими учеными-методистами, как К.Касимова, С.Матчонов, Н.Бекниязова, К.Юлдошев, Р.Сафарова, К.Хусанбоева, Р.Ниезметова, С.Камбарова, Ш.Сариев, Х.Бакиева⁵.

Проблемы работы над текстом на уроках чтения начальных классов, вопросы учета психологических особенностей учащихся при выполнении домашних заданий были изучены такими учеными стран СНГ, как А.Л.Филимонова, С.А.Леонов, М.Р.Львов, Н.Р.Неусыпова⁶.

⁵ Қосимова К., Убайдулаева Н. Иккинчи синфда она тили дарслари: Ўқитувчилар учун методик қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 168 б.; Матжонов С. Умумтаълим тизимида адабиётдан мустақил ишларни ташкил этиш: пед. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1998. – 243 б.; Bekniyazova N. Boshlang‘ich sinflar ona tili darslarida o‘quvchilarga matn yaratishni o‘rgatish metodikasi (ta‘lim o‘zbek va qoraqalpoq tillarida olib boriladigan maktablar misolida). Monografiya. – Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti, 2012. – 160 b.; Ўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 1997. – 306 б.; Сафарова Р., Юсупова Ф., Неъматов Ш., Кучкарова Ф. Она тили ва ўқиш дарсликларида концентризм тамойили асосида тақдим этиладиган ўқув материалларини синфлар кесимида лойихалаштириш. – Тошкент: Фан ва технология, 2014. – 128 б.; Хусанбоева Қ. Адабий таълим жараёнида ўқувчиларни мустақил фикрлашга ўргатишнинг илмий-методик асослари: пед. фан. д-ри. ... дисс. – Тошкент, 2006. – 262 б.; Ниезметова Р. Узлуксиз таълим тизимида ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. Монография. – Тошкент: Фан, 2006. – 216 б.; Husanboyeva Q., Niyozmetova R. O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 354 b.; Kambarova S. Mutolaa madaniyati va o‘quvchilarning tadqiqotchilik ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – 158 b.; Сариев Ш.У. Бошланғич синф ўқиш дарсларида матн устида ишлаш орқали нутқ ўстириш методикасини такомиллаштириш (1–2-синф материаллари мисолида): пед. фан. б. фалс. док. ... (PhD) дисс. – Тошкент, 2020. – 144 б.; Бакиева Х.С. Бошланғич синф ўқувчиларида мустақил таълим орқали нутқ ва тафаккурни ривожлантириш методикаси: пед. фан. б. фалс. док. ... (PhD) дисс. – Самарқанд, 2019. – 143 б.

⁶ Филимонова А.Л. Трудности в организации и проведении уроков литературного чтения // Журнал “Начальная школа”, 2009. № 6. – С. 59–64; Леонов С. А. Развитие речи учащихся на уроках литературы:

За рубежом в научных исследованиях Роберто Невилиса, Харриса Купера, Сары Беннет, Нэнси Калиш и Альфи Кохлара освещаются аспекты, связанные с учетом интересов учащихся, их возрастных и гендерных особенностей при организации домашних заданий.

Вопросы организации домашнего задания при формировании знаний, умений, квалификаций и жизненных компетенций младших школьников не исследованы монографическим путем.

Связь темы исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором выполнена диссертация. Диссертация выполнена в соответствии с научно-исследовательским планом Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои в рамках темы “Современные подходы преподавания узбекского литературы”.

Целью исследования является разработка научно-методических рекомендаций по организации домашних заданий на уроках чтения начальных классов.

Задачи исследования:

определить педагогические возможности организации домашних заданий на уроках чтения в начальной школе;

установить принципы организации домашних заданий на уроках чтения в начальной школе;

обоснование дидактических и методических аспектов организации домашнего задания;

совершенствование содержания организации этапа опроса домашнего задания уроков чтения исходя из типов и содержания домашнего задания;

В качестве **объекта исследования** был определен процесс организации домашнего задания на уроках чтения в начальных классах, в экспериментальной работе были задействованы 956 учащихся (из них 480 учащихся в экспериментальном классе, 476 учащихся в контрольном классе) из школы №5 Тайлакского района Самаркандской области, школы №68 города Самарканда, школы №6 Кызырикского района Сурхандарьинской области и школ №33, №46 Кокдалинского района Кашкадарьинской области.

Предметом исследования является содержание, формы, методы и средства организации домашних заданий на уроках чтения начальных классов общеобразовательных школ.

Метод, пособие для СПТУ. – М.: Высш. школа, 1988. – 66 с.; Львов М.Р., Горецкий В.Г., Сосновская О.В. Методика преподавания русского языка в начальных классах: учеб. пособие для студ. высш. пед. учеб. заведений / – 3-е изд., стер. – М.: Издательский центр Академия, 2007. – 464 с.; Неусыпова Н. М. Развитие речи младших школьников в условиях сельской малокомплектной школы: Книга для учителя. – М.: Просвещение, 1990. – 95 с.

Методы исследования. В ходе исследования использовались методы педагогического наблюдения, сравнительного анализа, тестирования, интервью, вопросов-ответов, наблюдения, анкетирования, экспериментально-тестового анализа и математико-статистического анализа результатов.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

уточнены педагогические возможности организации домашних заданий на уроках чтения в начальной школе с точки зрения достижения желаемых качественных показателей работы с текстом у ученика, доведения его до уровня сознательного читателя, формирования самостоятельной учебной (познавательной) деятельности, пробуждения внутренней потребности в усвоении информации, отраженной в тексте, совершенствования критического и творческого мышления, формирования у ученика элементарных тексто-литературных понятий и поощрения творческой деятельности в результате анализа учебного содержания читательских книг, программ и учебников по теме читательской грамотности;

принципы организации домашних заданий на уроках чтения в начальной школе основаны на стратегических и тактических целях образования в плане освоения навыков чтения и получения информации, в том числе чтения текста в рамках урока; видах работы, выполняемой в рамках понимания содержания текста: их соразмерности видам работы, выполняемой вне содержания текста; оптимальном распределении времени, которое ученик должен потратить на выполнение домашних заданий; учитывание уровня знаний и способностей ученика при назначении и опросе домашних заданий;

дидактические и методические подходы к организации домашних заданий в начальной школе основаны на том, что домашнее задание является не только средством закрепления знаний, но и педагогическим механизмом формирования компетенции самостоятельного обучения, соответствующей возрастным особенностям ученика, и совершенствуются на основе оптимизации домашних заданий по объему, содержанию и способу выполнения, их постановки, объяснения задачи, активности учащихся при выполнении домашних заданий, последовательности выдачи домашних заданий, а также содержательной соразмерности между поставленной задачей и требуемым результатом.

усовершенствована методология организации этапа выполнения домашних заданий по чтению, основанная на типе и содержании домашних заданий, с использованием творчески-дифференцированных учебных задач, направленных на повышение скорости чтения, формирование выразительной культуры чтения, углубление понимания содержания текста, выявление лингвистических и стилистических

особенностей текста, анализ художественных образов, составление текста на основе личных размышлений и развитие самостоятельных стратегий чтения.

Практическими результатами исследования являются:

созданы методические пособия “Эффективная организация уроков родного языка и грамотности чтения”, “Использование интерактивных методов на уроках чтения”, “Научно-теоретические аспекты организации домашних заданий на уроках чтения”, “Использование творческих заданий на уроках грамотности чтения”, а также учебник “Методика работы с текстом” связанные с организацией домашних заданий на уроках чтения начальных классов;

